

«ILINTIRISH» PSIXOLOGIYASI

Atadjanov Mamirjon Yusupovich

psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Farg'ona davlat universiteti

mamurjon9697@mail.ru

tel: +998 90 232 96 97

Jahon hamjamiyatining birgalikdagi faoliyati natijasida dunyo miqyosida terrormuhit birmuncha yumshagan sharoitda, terrorizmning to'la to'kis bartaraf etilishi haqida gapirishga hali erta bo'lsa ham, diniy ekstremistik tashkilotlar safiga tarafdorlarni yollash va psixikaga terroristik ustanovkalarni emlash usullari xaqida ba'zi bir tahliliy xulosalarni qilish mumkin.

Tahlilni shunday nazariy savollarni qo'yishdan boshlasak: Qanday qilib mustaqillikkacha 70 yildan ortiq vaqt mobaynida faqatgina daxriylik dunyoqarashini shakllantirish bilan shug'ullanib kelingan mamlakatda diniy ekstremistik g'oyalar qisqa vaqt ichida shunchalik keng tarqala oldi? Qanday qilib ana shu g'oyalarning jarchilari bemalol, xech qanday to'siqqa uchramasdan o'z qarashlarini targ'ib qilib tarafdorlar yollasha olishdi? va x.z. va x.z.

Obro'li manbalarning guvohlik berishicha Markaziy Osiyoga sayyor da'vatchilarning radikal diniy g'oyalar bilan oqib kirishlari ulkan imperiya hududida etnik o'z o'zini anglash va siyosiy mustaqillikka intilish boshlangan 90-yillarning ikkinchi yarmiga to'g'ri keldi.

Agar o'tgan davr hodisalarini sinchiklab tahlil qilinsa, ayrim fenomenlar, ularga sharoit yaratib beruvchi omillarni aniqlash va ba'zi bir hulosalar qilish mumkin.

Mustaqillik arafasi va uning dastlabki yillarida ekstremistik g'oyalar tarqalishining boshlang'ich bosqichida jamiyat a'zolari nafaqat ularga qarshilik ko'rsatishdi, balki notanish da'vatchilarning samarali faoliyat ko'rsatishlari uchun barcha shart sharoitlarni yaratib berishdi. Shaxs qurilmasini shakllantirishda har doim ilg'or marrada turgan tarbiya tizimi vakillari esa betaraf pozitsiyaga o'tib olishdi. Hokimiyat organlarining tashviqotchilarga munosabati agar ijobiy, deb aytib bo'lmasa, har holda befarq bo'ldi. Katta yoshdagilar yordam va e'tibor ko'rsatishdan tashqari o'z farzandlarini jarchilarga quloq solish va ularning qo'lida saboq olishga undadilar. Machitlarga imom xatiblar ularning bilimdonlik darajasini aniqlanmasdan tayinlandi, o'quvchilarning yoppasiga juma nomozlariga ketib qolishlari odatiy holga aylandi.

Fikrimizcha bu yerda ijtimoiy fikr oldidagi qo'rquv ham o'z vazifasini bajardi. Mustaxkamlangan tushunchalar va qadriyatlar tizimi tanqid ostiga olinib turgan bir paytda, sobiq tuzumning ijtimoiy mutelikni talab qilgan ta'siri va shaxsiy qarashni ijtimoiy fikrga korrektsiya qilish milliy psixologik xususiyati mohiyatni anglab turgan odamlarga ham o'z pozitsiyasini himoya qilishga qo'ymadi.

Har holda, islom olamining o'zi uchun ham begona bo'lgan g'oyalarning xech qanday to'siqsiz ijtimoiy ongga kirib kelishiga, radikal diniy tashkilotlarning mahalliy kriminal to'dalar bilan birlashib o'z iqtisodiy ahvolini mustaxkamlashiga nimalar imkon berdi, qanday usullar bilan ular bir qaraganda zararsizdek tuyulgan, aslida xavfli agressiv ustanovkalarni odamlar psixologiyasiga joylay oldilar.

Birinchidan, qonuniyatga ko'ra milliy ozodlik harakatining boshlang'ich nuqtasida milliy hissiyotda siyosiy tus ustunlik qiladi, shuning uchun milliy o'ziga xoslikni targ'ib qiluvchi har qanday mafkura ma'qul omil sifatida idrok qilinadi. Ma'lumki din har doim milliy mustaqillik hissiyotining juda kuchli katalizatori rolini o'ynagan, bu sohada katta tajribaga ega bo'lgan diniy ekstremistik g'oyalar targ'ibotchilari esa bu omildan juda ustalik bilan foydalanishdi.

Ikkinchidan, sobiq mafkura o'zining milliy o'z o'zini anglash tarkibidagi diniy hissiyotni yo'qotishga bo'lgan intilishi bilan odamlar ongida shunchalik nafrat uyg'otgan ediki, har qanday begona g'oya adekvat idrok qilinardi. Bu yerda oddiy qiyoslash qonuni amal qildi, agar bu g'oya eski, yomon g'oyaga qarshi bo'lsa, demak u yaxshi.

Uchinchidan, hokimiyat vakillari ijtimoiy siyosiy jarayonlarda yo'nalishni, ko'plab qurilmalar o'z boshqaruvchanlik layoqatini yo'qotishdi, noaniq kelajak oldidagi qo'rquv esa xaqiqatni to'g'ri aks ettirish qobiliyatini tortib oldi,

To'rtinchidan, kommunistik g'oya hukmronligi davrida biz tashqi olamdan shunchalik o'zilib qolgan edikki, islom dunyosi bilan har qanday aloqani yo'qotgan edik, zo'r berib bizning ongimizga tiqishtirishmoqchi bo'layotgan diniy qarashlar xaqida aslida deyarli xech narsa bilmas edik.

Beshinchidan, ulamolar eski tuzumga ixlos va sadoqatlari bilan o'zlarini obro'sizlantirib qo'ygan edilar, o'z o'zidan tushunarlik halq ularga ishonmay qo'ygan edi, haqiqiy islom ta'limotini teran anglaydigan ulamolar deyarli yo'q edi. Hadisidan: Abdulloh ibn Amr: «Rasululloh sallolohu alayhi va sallamning «Olloh toalo ilmni bandalardan tortib olmag'aydir, uni ulamolarni mahv qilish yo'li bilan tortib olur. Odamlar bironta ham ulamo qolmaganidan dinni tushunmaydiganlarni o'zlarigi boshliq qilib olg'aylar. So'ng, ulardan so'ragaylar. Ular bilmasdan fatvo ayturlar. O'zlari ham adashurlar, o'zgalarni ham adashtirg'aylar» deganlarini eshitganman», - deb aytgan.

Oltinchidan, o'zlarining butun hayotlarini yoshlar ongida daxriylikni shakllantirishga bag'ishlagan, ayni paytda qilayotgan jonbozliklarining noto'g'ri ekanligini anglab yashagan tarbiya tizimi vakillari birdaniga yengil nafas olishdi, o'zlarining Olloh va odamlar oldidagi «gunohlarini» bolalarning diniy maktablarga va yangi da'vatchilarning davlat maktablariga bemalol qatnab, birlariga g'oya o'zlashtirish, boshqa birlariga g'oya tarqatishlariga sharoit yaratib berish bilan oqlashga kirishib ketishdi, shu bilan bu g'oyalarning tezroq tarqalishi uchun qo'shimcha omil yaratib berishdi.

Yettinchidan, eski tuzum yemirilgandan so'ng paydo bo'lgan mafkuraviy bo'shliq mos ravishda yangi g'oyaga extiyoj tug'dirdi, tabiiyki bu extiyoj nasliy omil sifatida diniy g'oyaga yo'naltirildi, chunki har qanday tushkunlik, ichki bo'shliq holatida inson birinchi navbatda Yaratganga murojaat qiladi, eski mafkura esa o'zining xech narsa bilan oqlab bo'lmaydigan har qanday boshqacha fikrlashga, xususan diniy hissiyotga qarshi ayovsiz kurashlari bilan odamlarda ongsiz ravishda eskisiga qarshi bo'lgan hoxlagan g'oyaning to'siqqa uchramasdan ongga joylashishi uchun zamin xozirlab qo'ygan edi.

Nixoyat, bizda mana shunday vaziyatlarda to'g'ri harakat qilishning amaliy tajribasi yo'q edi, eski mafkura norozilikning har qanday ko'rinishini ayovsiz bostirib, norozilik kelib chiqishi ehtimolining o'zini ham inkor qilgan edi, kechagina jamiyat uchun noma'qul bo'lgan shaxslar esa bir yumalab mo'min musulmonga aylanib olishdi va aynan shu narsa ham ijtimoiy ongni dovdiratishda muhim rol o'ynadi. Diniy ekstremistik tashkilotlar jarchilari bu omillarning hammasidan ustalik bilan foydalanishdi, hamma narsa, o'tish davrining tabiiy qiyinchiliklari ham ularning qo'lida kuchli qurolga aylandi, buning ustiga ularning qo'lida odamlar ongini manipulyatsiya qilish, boshqarishning tayyor mexanizmlari bor edi, mafkuraviy targ'ibotning sinovdan o'tgan butun bir tizimi ularning xizmatida edi, ustiga ustak ular xech qanday axloq normasi va odob qonunlarini tan olishmas edi, jamiyatda keskin o'zgarishlarni bir umr kutib yashagan ko'pchilik uchun bu juda ma'qul usul edi, baxtga qarshi juda ko'pchilik bu g'oyalarni jon-jon deb qabul qildi.

Tajribali mutaxassislar raxbarligida maxsus tayyorgarlikdan o'tgan radikal diniy g'oyalar jarchilari o'sha vaqtlarda varaqalar matniga ustanovka-so'zlarni joylash orqali ong ostini neyrolingvistik

rejalashtirish, narkotiklar vositasida shaxs psixologik yo'nalishini o'zgartirish bilan zombilashtirish, ustanovkalarini emlash yo'li bilan ishontirish kabi eng samarali usullardan foydalanishdi.

Da'vatchilar faoliyatining muvaffaqiyatini, turli yoshdagi odamlar va asosan yoshlarning ularning changaliga tushib qolishlari kabi holatni nima ta'minladi.

Birinchidan, dinga qarshi kurashni dindorlarga qarshi kurashga aylantirgan va shu bilan odamlar ongida nafrat uyg'otgan jangovar ateizm ta'siri ostida uzoq yillar davomida siqilib yotgan diniy hissiyot vulqon ko'rinishida otilib chiqdi.

Ikkinchidan, hayotiy tajribasi va tez o'zgaradigan hayot sharoitlarida vaziyatni to'g'ri baholay olish layoqati yetarli bo'lmagan yoshlar chanqoqlik bilan radikal ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlarga intilishdi.

Uchinchidan, butun Sharq va shu jumladan o'zbeklarga ham xos bo'lgan, eng nodir milliy xususiyatlardan sanalgan kattalarni hurmat qilish, ularga e'tiroz bildirmaslik, so'zsiz bo'ysunish ko'rinishidagi konformizm diniy ekstremistik ta'sirga ichki psixologik qarshilik imkoniyatini yo'qqa chiqardi.

To'rtinchidan, yuqorida eslatib o'tganimizdek, yangi da'vat g'oyalari sobiq mafkuraning mutlaq hukmronligi natijasida har qanday mafkuradan jirkanish hissidan paydo bo'lgan mafkuraviy bo'shliq ko'rinishidagi qulay muhitga tushdi, chunki o'sha vaqtda ko'plab obro'li manbalar umuman xech qanday mafkurasiz yashashni taklif qilishib, ma'lum ma'noda ijtimoiy fikrni to'g'ri ifodalashgan edi, buni to'g'ri anglagan da'vatchilar esa o'z g'oyalarini mafkura ko'rinishida emas, balki kamsitilgan diniy hissiyotning uyg'onishi ko'rinishida taqdim qilishdi.

Xozirgi paytda vayronkor, diniy ekstremistik g'oyalarning ta'siri sezilarli darajada susaydi, ma'naviy-ma'rifiy, mafkuraviy targ'ibot ishlari natijasida jamiyat a'zolari turli g'oyalarni baholashda mulahazaliroq bo'lib qolishdi, jamiyat islom dunyosida «kim kim ekanligini» nihoyat anglay boshladi. Lekin bu holat jamiyatda turli yot g'oyalarga qarshi kurash kun tartibidan olindi degan ma'noni anglatmaydi. Jamiyat mavjud ekan, unda turli tizimlar va qurilmalar faoliyatida nuqsonlar, poraxo'rlik, korruptsiya, befarqlik, inson taqdiriga loqaydlik, adolatsizlik, tarbiyada qattiqqo'llik ko'rinishidagi illatlarning bo'lishi va bu illatlar turli ijtimoiy guruhlar hamda tabaqalarda ma'lum ijtimoiy norozilik holatini paydo qilishi tabiiy. Yana shu narsani ham unutmaslik kerakki, jamiyatning tabaqalanishi tabiiy hol, tenglar jamiyati haqidagi g'oyalar utopiyadan, homhayollikdan boshqa narsa emas, yetmish yildan ortiq vaqt mobaynida ongiga tenglik g'oyasi singdirib kelingan jamiyat esa, tabaqalanish faktini psixologik zo'riqish bilan qabul qiladi, buni to'g'ri anglagan Respublika raxbariyati inqilobiy o'zgarishlarni inkor qilib, bosqichma-bosqich taraqqiyot yo'lini tanlab, jamiyatda ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy barqarorlikni saqlash uchun hamma ishni qilayapti. Lekin iste'molchilik vasvasasi shu qadar kuchliki, hali beri biz eski tuzumdan meros qolgan tushunchalar va turmush tarzidan qutulishimiz qiyin, ularni farmon yoki ko'rsatmalar bilan siqib chiqarish mumkin emas, demak ijtimoiy norozilik ehtimoli ham saqlanib qolaveradi va undan o'zining g'araz maqsadlarida foydalanishni hoxlovchilar esa har doim topiladi. Fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya tamoyiliga amal qilib shu kuchlar qo'llayotgan ta'sir kuchini bartaraf qiladigan, jamiyat a'zolarining unga ichki psixologik qarshiligini kuchaytiradigan mexanizmlarni o'rganib, qo'llash eng dolzarb vazifalardan sanaladi.

Ijtimoiy ongga ta'sir qilish, ong ostini boshqarishning tajribada sinalgan, ichki qarshilik, psixologik to'yinish paydo qilmaydigan usullaridan foydalanish lozim, quruq ma'ruza, pand-nasihad va hisobot uchun tadbirlar o'tkazish bilan ko'p narsaga erishib bo'lmaydi. Jamiyatda shunday ijtimoiy barometrni shakllantirish kerakki, toki u ijtimoiy fikrning har qanday tebranishini o'z vaqtida sezish, chora tadbirlar mexanizmini tanlash imkonini bersin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Ma'naviyat boshqa sohalardan oldinda yurishi, yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak. 2023 yil 22 dekabr' kuni bo'lib o'tgan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishidagi nutq.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.-T. O'zbekiston, 1997 - 326 b.
3. Baeva I.A. Psixologicheskaya bezopasnost' v obrazovanii: Monografiya. SPb.: Soyuz, 2002 . 271 s.
4. Val'tsev S. V. Sotsial'no-psixologicheskii analiz funktsiy natsional'noy psixologii// Problemi sovremennoy nauki i obrazovaniya. 2012. № 4 (4). S. 53-55.
5. Grachev G.V. Informatsionno-psixologicheskaya bezopasnost' lichnosti: sostoyaniya i vozmojnosti psixologicheskoy zashiti. M.: RAGS, 1998. 125 s.
6. Krasnyanskaya T.M. Bezopasnost' cheloveka: psixologicheskii aspekt: uchebnoe posobie / pod red. A.V. Nepomnyashego. Stavropol': ZAO Pressa, 2005. 216 s.
7. Mugulov F.K. Bezopasnost' lichnosti: teoreticheskie i prikladnie aspekti sotsiologicheskogo analiza: monografiya. Sochi: RIO SIMBiP, 2003. 243 s.
8. Атаджанов М. Переходное поколение в современном социуме: от поколения икс к интернет-поколению //Научный вестник Воронежского государственного архитектурно-строительного университета. Серия: Социально-гуманитарные науки. – 2015. – №. 4. – С. 69-73.
9. Атаджанов, М. "Переходное поколение в современном социуме: от поколения икс к интернет-поколению." Научный вестник Воронежского государственного архитектурно-строительного университета. Серия: Социально-гуманитарные науки 4 (2015): 69-73.
10. Атаджанов, М. (2015). Переходное поколение в современном социуме: от поколения икс к интернет-поколению. Научный вестник Воронежского государственного архитектурно-строительного университета. Серия: Социально-гуманитарные науки, (4), 69-73.
11. Атаджанов М. МИЛЛИЙ ПСИХОЛОГИК ҚИЁФА ХУСУСИЯТЛАРИНИНГ ШАКЛЛАНИШ ОМИЛЛАРИ ВА НАМОЁН БЎЛИШ СОҲАЛАРИ //Interpretation and researches. – 2023. – Т. 1. – №. 5.
12. Атаджанов, Мамиржон. "МИЛЛИЙ ПСИХОЛОГИК ҚИЁФА ХУСУСИЯТЛАРИНИНГ ШАКЛЛАНИШ ОМИЛЛАРИ ВА НАМОЁН БЎЛИШ СОҲАЛАРИ." Interpretation and researches 1.5 (2023).
13. Атаджанов, М. (2023). МИЛЛИЙ ПСИХОЛОГИК ҚИЁФА ХУСУСИЯТЛАРИНИНГ ШАКЛЛАНИШ ОМИЛЛАРИ ВА НАМОЁН БЎЛИШ СОҲАЛАРИ. Interpretation and researches, 1(5).
14. Атаджанов М. МИЛЛИЙ ПСИХОЛОГИК ҚИЁФА ХУСУСИЯТЛАРИНИНГ ШАКЛЛАНИШ ОМИЛЛАРИ ВА НАМОЁН БЎЛИШ СОҲАЛАРИ //Interpretation and researches. – 2023. – Т. 1. – №. 5.
15. Атаджанов, Мамиржон. "МИЛЛИЙ ПСИХОЛОГИК ҚИЁФА ХУСУСИЯТЛАРИНИНГ ШАКЛЛАНИШ ОМИЛЛАРИ ВА НАМОЁН БЎЛИШ СОҲАЛАРИ." Interpretation and researches 1.5 (2023).
16. Атаджанов, М. (2023). МИЛЛИЙ ПСИХОЛОГИК ҚИЁФА ХУСУСИЯТЛАРИНИНГ ШАКЛЛАНИШ ОМИЛЛАРИ ВА НАМОЁН БЎЛИШ СОҲАЛАРИ. Interpretation and researches, 1(5).
17. Атаджанов М. Ю. МИЛЛИЙ ПСИХОЛОГИК ҚИЁФА ҚУРИЛМАСИДА МАДАНИЯТ //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 1. – №. 9. – С. 1366-1377.

18. Атаджанов, Мамиржон Юсупович. "МИЛЛИЙ ПСИХОЛОГИК ҚИЁФА ҚУРИЛМАСИДА МАДАНИЯТ." Новости образования: исследование в XXI веке 1.9 (2023): 1366-1377.
19. Атаджанов, М. Ю. (2023). МИЛЛИЙ ПСИХОЛОГИК ҚИЁФА ҚУРИЛМАСИДА МАДАНИЯТ. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(9), 1366-1377.
20. Mamurjon A. et al. O 'SMIRLIK DAVRIDA UCHRAYDIGAN IJTIMOIIY FOBIYANING XAVOTIRLANISH BILAN BOG 'LIQLIGI //Научный Фокус. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 1619-1625.
21. Mamurjon, Atajonov. "O 'SMIRLIK DAVRIDA UCHRAYDIGAN IJTIMOIIY FOBIYANING XAVOTIRLANISH BILAN BOG 'LIQLIGI." Научный Фокус 1.1 (2023): 1619-1625.
22. Mamurjon, A. (2023). O 'SMIRLIK DAVRIDA UCHRAYDIGAN IJTIMOIIY FOBIYANING XAVOTIRLANISH BILAN BOG 'LIQLIGI. Научный Фокус, 1(1), 1619-1625.
23. Атаджанов М. Ю. МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ ПРОБЛЕМЫ НАЦИОНАЛЬНОГО ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗА УЗБЕКОВ //Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 165-173.
24. Атаджанов, Мамиржон Юсупович. "МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ ПРОБЛЕМЫ НАЦИОНАЛЬНОГО ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗА УЗБЕКОВ." Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies. Vol. 2. No. 5. 2023.
25. Атаджанов, М. Ю. (2023, May). МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ ПРОБЛЕМЫ НАЦИОНАЛЬНОГО ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗА УЗБЕКОВ. In Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies (Vol. 2, No. 5, pp. 165-173).
26. Атаджанов М. Ю. ПСИХОАНАЛИТИЧЕСКИЙ ПОДХОД К ПРОБЛЕМЕ НАЦИОНАЛЬНОГО ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО СКЛАДА //Экономика и социум. – 2023. – №. 1-1 (104). – С. 163-169.
27. Атаджанов, М. Ю. "ПСИХОАНАЛИТИЧЕСКИЙ ПОДХОД К ПРОБЛЕМЕ НАЦИОНАЛЬНОГО ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО СКЛАДА." Экономика и социум 1-1 (104) (2023): 163-169.
28. Атаджанов, М. Ю. (2023). ПСИХОАНАЛИТИЧЕСКИЙ ПОДХОД К ПРОБЛЕМЕ НАЦИОНАЛЬНОГО ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО СКЛАДА. Экономика и социум, (1-1 (104)), 163-169.